

**“GUL VA SANOBAR” DOSTONI BADIYYATI**

*Madaminova Dilnura Bahodir qizi*  
*Urganch davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm dostonlari jamlangan “Oshiqnoma” majmualarining 3-kitobi, “Oshiqnoma” turkumidagi “Gul va Sanobar” dostoni badiiyati, romandagi obrazlar tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** tarixiy obraz, bosh qahramon, miflar, yor goʻzalligi, oshiq va maʼshuqa taʼrifi.

**ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЭПОС “ГУЛЬ И САНОБАР”**

**Абстрактный.** В данной статье анализируются 3-я книга серии “Ошикнома”, в которую вошли хорезмийские эпосы, искусство эпоса “Гуль и Санобар” из серии “Ошикнома”, персонажи романа.

**Ключевые слова:** исторический персонаж, главный герой, мифы, красота земли, описание возлюбленной и возлюбленной.

**ARTISTIC OF THE EPIC “GUL VA SANOBAR”**

**Abstract.** In this article, the 3rd book of the “Ashiqnoma” series, which includes the epics of Khorezm, the art of the epic “Gul and Sanobar” from the “Ashiqnoma” series, and the characters in the novel are analyzed.

**Key words:** historical character, main character, myths, beauty of the land, description of lover and lover.

Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining yirik va murakkab janrlaridan hisoblangan dostonlar xalqning oʻziga xos badiiy tarixi boʻlib, uning tarkibida xalqimizning ming yillik lisoniy boyligi oʻzini namoyon qilib turadi. Bu maʼnaviy meros asrlar boʻyi xalq ommasiga maʼnaviyat baxsh etib kelgan buyuk obidalardan biridir. Dostonlar leksikasi, ularning til boyligi bizning maʼnaviy boyligimiz hisoblanadi.

Dostonlardagi obrazlarning har biri oʻziga xos xususiyatlarga ega, ular voqealar silsilasi bilan turli etnografik, tarixiy tamoyillarni oʻzida mujassamlashtirgan. Bu obrazlar orqali doston syujeti bilan bogʻliq davr, xalqlarning urf-odatlarini, yashash tarzini ham bilib olishimiz mumkin. Ayrim hollarda doston qahramonlarini mukammalroq taʼriflash maqsadida tarixiy shaxslar nomlari, taxallus va laqablari keltiriladiki, ular hudud bilan bogʻliq voqealarni anglatishda muhim rol oʻynaydi.

Dostonlarda tarixiy shaxslar sifatida talqin qilinishi mumkin boʻlgan obrazlar: hukmdorlar, olimlar, din peshvolarining ismlari faol qoʻllanilishi bilan xarakterlidir. “Gul va Sanobar” dostonida ham tarixiy obrazlar qoʻllanilgan. Jumladan: **Zavar shoh, Xurshid shoh, Xusrav, Shohimardon, Farruh shoh.**

“Ammo roviyoni axbor va noqiloni osor va muhaddisoni dostoni boʻston, ammo

roviylar andog‘ rivoyat qilibdurlarkim, Chin shahrinda Xurshid shoh otlig‘ podsho bor erdi.”

“Sanobar hujrasiga kirib yotdi. Vazirning o‘g‘li Zevar shoh kirib ko‘rsa, Sanobar badhol yotib turur. “

“Farruh shohni qizi otimiz Guldur,  
G‘aming birla shaydo bo‘lg‘on bulbuldur.  
To o‘lguncha qolay iqrorim shuldur,  
Fahm aylasang ul makondin bo‘lurman.”

“Birovga kiydurub toji Xisravi,  
Birovni el ichra gado ayladi...”

“Sanobarni piri yo Shohimardon,  
Zangilar qo‘lida qoldim men hayron.”

Dostonlarda qo‘llanilgan badiiy obrazlarning nomlari, xususan, bosh qahramonlar nomlari xalq orasida juda keng tarqalgan. Shu sababdan ham ularning ko‘pchiligi tarixiy shaxslar kabi tilga olinadi, sevib ardoqlanadi, ko‘pchilik oilalarda ularning ismlarini o‘z farzandlariga qo‘yishadi. Jumladan, Go‘ro‘g‘li, Avaz, Ravshan, Shahriyor, Bozirgon, Rustam, Xirmondali, Shohsanam va boshqa nomlar xorazm dostonlarining ko‘pchiligida mavjud. Xususan, “Gul va Sanobar” dostonida ham shunday obrazlarni topishingiz mumkin: Zevar, Parizod, Xurshid, Farruh, Guli, Lolagul.

“Oning Sanobar otli bir o‘g‘li bor erdi.”

“Asli oning parizodi,  
Asli erur Xurshid dodi.  
Kecha-kunduz munda yori,  
Xabar bering yorim bormu?”

“Ammo Zevarshohni ahvolini Sanobar so‘rab, Zevarshoh javob bergani bu turur...”

“Farrux shohni qizi otimiz Guldur  
G‘aming birla shaydo bo‘lg‘on bulbuldur...”

Ushbu dostonda miflar ham qo‘llanilgan. Xususan, dostonlarimiz tilida uchraydigan afsonaviy qush Semurg‘ obrazi ushbu dostonda tasvirlangan:

“Ammo bir kun tushlik mahalda Semurg‘ ul g‘orga qo‘nib bir fasl istirohat qilib ketar edi...”

Samandar mifi:

“Hajrinda Samandardek o‘tlarga tutashibman,  
Bir zarra vafo ko‘rmay g‘am birla tutashibman.”

Xorazm dostonlari ishqiy-sarguzasht xarakterida bo‘lganligi sababli ularda yor go‘zalligi, oshiq va ma‘shuqa ta‘rifi asosiy o‘rinni egallaydi. O‘sha jarayonda turli o‘xshatishlar, sifatlashlar, mubolag‘a va jonlantirishlar ro‘yobga chiqadi. Bu toifa

soʻzlar poetik ohangdorlikni kuchaytiradi. Quyida biz ularni tasnif qilgan holda tahlilga tortamiz. Oshiq va maʼshuqa qiyofasini tasvirlashda qoʻllaniladigan soʻzlarni koʻrib chiqamiz.

***A) yorning chehrasi va koʻzi tasviri :***

a)“Alifdek qomatli, gul yuzli dilbar

Oni ishqinda man boʻldim asirlik.”

b)“Koʻzlaring nargisdur, qomating tubi,

Nozanin dilbarim, jahon mahbubi.”

d)Mastona qaro koʻzliq, xunxorgʻa salomimni,

Mastona borib aytgʻil, ul yorgʻa salomimni.

e)“Bir paridir husni, huri mashʻali,

Ohu koʻzli sevar yora yetibman”

***D) yorning sochi, qoshi, kiprigi tasviriga oid soʻzlar:***

a)“Yusuf kabi solar mani zindona

Zulfi parishonim, qaydin boʻlursan?”

B)“Ul xasta siyo zulfi shamshodgʻa salomimni,

Mastona qaro koʻzliq, xunxorgʻa salomimni.”

Xulosa qilib aytganda, xalq dostonlari har bir millatning oʻziga xos badiiy tarixi boʻlib, ularda oʻsha millatning asrlar osha sayqallashib kelgan boy lisoniy merosi oʻz mujassamini topadi. Xorazm dostonlariga xos shunday bir xususiyat borki, doston ijrochilari badiiy nutqda tasviriylikni yuksaltirish uchun koʻp hollarda sifatlash, oʻxshatishlarga koʻp murojaat qiladi. Dostonlar xalq ogʻzaki ijodidagi epik asarlar xazinasidagi oʻziga xos murakkab janrdir. Unda xalq tarixiy hayoti, rasm-rusumlari, odatlari, ozodlik uchun olib borgan mashaqqatli kurashlari oʻzining badiiy ifodasini topgan. Dostonlarni kuylayotgan baxshilarda kuchli xotira, asarni ijro etayotgan paytda vujudga kelgan vaziyatga toʻgʻri baho bera olish, oddiy voqealarni oʻta qiziq tarzda hikoya qila bilish mahorati mujassam boʻlmogʻi lozim. Asrlar davomida bu janr namunalari har bir hududda ijro etilishi mahalliy anʼanalarni, hatto, maktablarni yaratdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Masharipov O. Xorazmnoma. Qadimgi Xorazm. Urganch: “Xorazm”. 2005.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. Ruzimboyev S. Xorazm dostonchiligi epik anʼanalari. Urganch, “Universitet”, 2008.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
5. Xorazm dostonlari. Oshiqnoma, 3-kitob. “Xorazm” nashriyoti,2008.